

XORIJIY TILLARNI TEXNOLOGIYA BILAN UZVIYLIKDA O‘QITISH (TELL) YONDASHUVINING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI

Nigmatova Dilso‘z Yadgarovna,

“Xorijiy tillarni o‘qitish” kafedrasida katta o‘qituvchisi TDIU

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.18677277>

Annotatsiya. Ushbu maqolada xorijiy tillarni o‘qitish jarayonini tashkillashtirishda texnologiya bilan uzviylikning (Technology Enhanced Language Learning – TELL) nazariy-metodologik asoslari, shakllanish jarayoni hamda zamonaviy ta‘lim tizimidagi o‘rni yoritilgan. Tadqiqot jarayonida yetakchi xorijiy olimlarning ilmiy ishlaridan namunalar keltirilgan, texnologiyalarning ta‘lim samaradorligini oshirishdagi pedagogik imkoniyatlari aniqlangan. Shuningdek, TELL yondashuvining afzalliklari, cheklovlari va uni amaliyotga tatbiq etish masalalari muhokama qilingan.

Kalit so‘zlar: texnologiya bilan uzviy o‘qitish, TELL, pedagogik, raqamli ta‘lim, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, multimedia, masofaviy ta‘lim.

Annotation. This article is discussed about theoretical and methodological foundations, the formation process, and the role of Technology Enhanced Language Learning (TELL) in the modern education system in organizing the foreign language teaching process. The study draws on examples from the scholarly works of leading foreign researchers and identifies the pedagogical potential of technologies in improving educational effectiveness. In addition, the advantages, limitations, and issues related to the practical implementation of the TELL approach are discussed.

Keywords: technology-enhanced learning, TELL, pedagogical, digital education, information and communication technologies, multimedia, distance education.

Аннотация. В данной статье рассматриваются теоретико-методологические основы, процесс формирования и роль технологии обучения иностранным языкам с использованием цифровых средств (Technology Enhanced Language Learning – TELL) в современной системе образования. В ходе исследования приведены примеры научных работ ведущих зарубежных ученых, а также выявлены педагогические возможности технологий в повышении эффективности обучения. Кроме того, обсуждаются преимущества, ограничения и вопросы практического внедрения подхода TELL.

Ключевые слова: обучение с использованием технологий, TELL, педагогический, цифровое образование, информационно-коммуникационные технологии, мультимедиа, дистанционное обучение.

Kirish. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi jamiyatning barcha sohalarida, jumladan ta‘lim tizimida ham tub o‘zgarishlarni yuzaga keltirdi. Bugungi kunda bilim olish jarayoni faqat auditoriya mashg‘ulotlari bilan chegaralanib qolmay, balki turli raqamli platformalar, elektron resurslar, mobil ilovalar va virtual ta‘lim muhitlari orqali amalga oshirilmoqda. Bu esa ta‘lim mazmuni va shakllarini qayta ko‘rib chiqishni talab etadi.

An‘anaviy o‘qitish modelida o‘qituvchi asosiy axborot manbai bo‘lib, talaba esa ko‘proq passiv qabul qiluvchi sifatida namoyon bo‘lgan. Zamonaviy ta‘lim esa talabaning faol ishtiroki, mustaqil izlanishi va amaliy ko‘nikmalarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, texnologiya bilan uzviylikda o‘qitish ta‘lim jarayonini modernizatsiya qilishning muhim vositasi hisoblanadi. Texnologiya bilan uzviylikda

o'qitish dastlab chet tillarini o'qitishda kompyuter va internet resurslaridan foydalanish asosida shakllangan. Keyinchalik bu yondashuv kengayib, tabiiy fanlar, texnik yo'nalishlar va ijtimoiy fanlar ta'limida ham qo'llanila boshlandi. Hozirgi kunda TELL raqamli platformalar, multimedia vositalari, sun'iy intellekt va mobil texnologiyalarni o'z ichiga olgan kompleks ta'lim yondashuvi sifatida qaralmoqda.

Zamonaviy ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, texnologiyalar ta'lim samaradorligini oshirish bilan bir qatorda, talabalarning mustaqil ta'lim olish, axborotni tanqidiy tahlil qilish va o'z bilimlarini baholash ko'nikmalarini rivojlantiradi. Ayniqsa, masofaviy va gibril ta'lim sharoitida TELL ta'lim uzluksizligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Adabiyotlar tahlili. Texnologiya bilan uzviy o'qitish bir qator pedagogik va psixologik nazariyalarga asoslanadi. Jumladan, konstruktivizm nazariyasiga ko'ra, bilim talaba tomonidan faol ravishda o'zlashtirib boriladi va ta'lim jarayoni shaxsiy tajriba bilan boyitiladi. Jean Piaget ushbu nazariyada bilimlarni tayyor shaklda berish emas, balki talabaning faol kognitiv faoliyati orqali shakllantirish zarurligini ta'kidlaydi [4].

Lev Vygotskiy tomonidan ishlab chiqilgan sotsiomadaniy nazariya ham TELL uchun muhim metodologik asos bo'lib xizmat qilgan. Uning "yaqin rivojlanish zonasi" konsepsiyasiga ko'ra, talaba bilimni ijtimoiy muloqot va yordam orqali o'zlashtiradi. Raqamli texnologiyalar, xususan, onlayn platformalar va virtual muhitlar ushbu muloqotni kengaytirish imkonini beradi [5].

Texnologiya bilan uzviy o'qitish masalalari C.A.Chapelle tomonidan chet tillarini o'qitish kontekstida chuqur tadqiq qilingan. Uning fikricha, texnologiyalar til o'rganishda autentik materiallar bilan ishlash, real kommunikativ vaziyatlarni modellashtirish va individual ta'lim trayektoriyasini yaratishda samarali vosita hisoblanadi [1]. Chapelle texnologiyani pedagogik maqsadga xizmat qiluvchi yordamchi omil sifatida baholaydi.

R.E.Mayer tomonidan ishlab chiqilgan "Multimedia asosida o'rganish nazariyasi (Multimedia Learning Theory)" nazariyasi ham TELL yondashuvining muhim ilmiy asoslaridan biridir. Mayer tadqiqotlariga ko'ra, axborotni vizual va audial kanallar orqali birgalikda taqdim etish bilimlarni chuqurroq o'zlashtirishga olib keladi [2]. Ushbu nazariya multimedia vositalarining ta'lim jarayonidagi samaradorligini ilmiy jihatdan asoslab beradi.

Bundan tashqari, Richards va Rodgers texnologiyalar kommunikativ yondashuvni kuchaytirib, o'rganuvchilarning til kompetensiyasini rivojlantirishga xizmat qilishini ta'kidlaydi [3]. Selwyn esa texnologiyalar ta'lim jarayonida ijtimoiy va pedagogik omillar bilan uyg'unlashgandagina samarali bo'lishini qayd etadi [6].

Muhokama va natijalar. Olib borilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, texnologiya bilan uzviylikda o'qitish asosida tashkil etilgan ta'lim jarayonida talabalarning bilimlarni o'zlashtirish darajasi sezilarli darajada oshadi. Raqamli platformalar, interaktiv mashqlar va multimedia vositalari o'quv materialini tushunishni osonlashtiradi hamda uni

uzoq muddatli xotirada saqlashga yordam beradi. Bundan tashqari, TELL talabalarining mustaqil ta'lim olish, axborotni tanlash va baholash ko'nikmalarini rivojlantiradi. Onlayn resurslar orqali talabalar o'z ta'lim jarayonini rejalashtirish va nazorat qilish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Olingan natijalar texnologiya bilan uzviylikda o'qitish zamonaviy ta'lim tizimida yuqori samaradorlikka ega ekanligini ko'rsatadi. Biroq texnologiyalarning ta'lim jarayoniga samarali tatbiqi pedagogning kasbiy tayyorgarligi va metodik mahoratiga bevosita bog'liq. Chapelle ta'kidlaganidek, texnologiya ta'lim jarayonida maqsad emas, balki pedagogik vazifalarni amalga oshirish vositasi bo'lishi lozim. Shu sababli TELLni joriy etishda pedagoglarning raqamli kompetensiyalarini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Birinchi navbatda, olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, texnologiya bilan qo'llab-quvvatlangan o'qitish (TELL) zamonaviy ta'lim tizimida muhim pedagogik yondashuv sifatida shakllangan. Ushbu yondashuv raqamli texnologiyalar, multimedia vositalari va onlayn platformalardan maqsadli foydalanish orqali ta'lim jarayonining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Tadqiqot natijalari TELL talabalarining bilimlarni o'zlashtirish darajasini oshirish, ularning motivatsiyasini kuchaytirish va mustaqil ta'lim olish ko'nikmalarini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega ekanligini tasdiqlaydi.

Ikkinchidan, TELL yondashuvi ta'lim jarayonini individuallashtirish va talabalarining shaxsiy ehtiyojlarga moslashtirish imkonini beradi. Raqamli ta'lim muhitlari orqali talabalar o'z ta'lim sur'ati va uslubini mustaqil belgilash, o'z faoliyatini nazorat qilish hamda baholash imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu esa ularning metakognitiv kompetensiyalarini shakllantirishga va ta'lim jarayonida faol subyekt sifatida ishtirok etishiga zamin yaratadi.

Uchinchidan, texnologiya bilan uzviy o'qitishni samarali joriy etish pedagogning kasbiy va raqamli kompetensiyalariga bevosita bog'liq ekanligi aniqlandi. Texnologiyalarni ta'lim jarayonida maqsadli va metodik jihatdan asoslangan holda qo'llash, ularni pedagogik vazifalarga moslashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois TELL yondashuvini ta'lim amaliyotiga keng tatbiq etish bilan bir qatorda, pedagoglarning malakasini oshirish va ularning raqamli savodxonligini rivojlantirish zarur hisoblanadi.

Xulosa. Texnologiya bilan uzviy o'qitish zamonaviy ta'lim tizimining ajralmas qismiga aylanib ulgurdi. TELL yondashuvi ta'lim jarayonini individuallashtirish, interaktivlikni oshirish va talabalarining mustaqil ta'lim olish ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Ushbu yondashuvni ta'lim amaliyotiga keng joriy etish ta'lim sifatini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Multimedia vositalari va onlayn ta'lim platformalaridan maqsadli foydalanish ta'lim jarayonining samaradorligini oshirib, talabalarining bilimlarni chuqur va ongli o'zlashtirishiga xizmat qiladi. TELL yondashuvi talabalarni faqat bilim oluvchi emas,

balki ta'lim jarayonining faol ishtirokchisiga aylantirib, ularning mustaqil fikrlash va muammoni hal qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Tadqiqot davomida o'rganilgan ba tahlil qilingan ilmiy manbalar va nazariy qarashlar TELLning pedagogik imkoniyatlarini ilmiy jihatdan asoslab bergan. TELL orqali ta'limni individuallashtirish, talabalarning shaxsiy ehtiyojlari va qobiliyatlarini hisobga olish, shuningdek, masofaviy va gibrid ta'lim sharoitida ta'lim uzluksizligini ta'minlash imkoniyatlari kengayadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Chapelle, C. A. (2001). Computer applications in second language acquisition. Cambridge University Press.
2. Mayer, R. E. (2009). Multimedia learning (2nd ed.). Cambridge University Press.
3. Piaget, J. (1950). The psychology of intelligence. Routledge.
4. Richards, J. C., & Rodgers, T. S. (2014). Approaches and methods in language teaching (3rd ed.). Cambridge University Press.
5. Selwyn, N. (2016). Education and technology: Key issues and debates (2nd ed.). Bloomsbury.
6. Vygotsky, L. S. (1978). Mind in society: The development of higher psychological processes. Harvard University Press.

